XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 17-aprel VI-84-70-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyati budjetining 2024-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son qonunining 20-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-son qaroriga muvofiq viloyat budjetining joriy yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflarni inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 12-martdagi 22-12-04/122-sonli va 22-12-04/123-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda mutasaddi tashkilotlarning viloyat budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat budjetining joriy yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan **416,2 mln. so‘m** mablag‘ ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi huzuridagi “Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg‘armasi”ga yoqilg‘i birligidan undirilgan maxsus yig‘imdan tushgan **3,5 mlrd. so‘m** mablag‘ Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi “Obod qishloq” jamg‘armasiga o‘tkazilsin.

5. 2024-yilda Boysun tumanida o‘tkaziladigan “Boysun bahori” folklor festivaliga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi “2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-154-sonli qarori bilan tasdiqlangan Surxondaryo viloyatidagi mahallalarda birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar” dasturiga qo‘shimcha kiritilgan ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun maxsus yig‘imdan tushgan mablag‘lar yo‘naltirilsin.

6. Viloyat budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunlarda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan

ishlarni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy gazetalar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi  CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 17-apreldagi
VI-84-70-8-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati budjetining joriy yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risida
MA’LUMOT

(mln. so‘m)

T/r	Shahar va tumanlar hamda tashkilotlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ maqsadi	Jami ajratilgan mablag‘
	Jami ajratiladigan mablag‘		**416,2**
I.			**-529,6**
1	Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” DUK	Termiz shahridagi 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktabi (sobiq mehribonlik uyi), (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 3-bandi)	-11,9
2	Viloyat Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga	Viloyatga biriktirilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiatosh tumanida irrigatsiya tizimida hamda tuman hududida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun ekskavator xarid qilish maqsadida (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 8-bandi)	-32,4
3	Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlariga	Tuman (shahar)lardagi binosi bo‘lmagan MFYlar binolarini qurilishi uchun zarur bo‘lgan qurilish materiallari xarid qilish uchun (viloyat hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining bildirishnomasiga asosan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi) (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 11-bandi)	-300,0
4	Viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	Umumta’lim maktablari 9-11-sinf o‘quvchilarining tadbirkorlik asoslari va moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida Surxondaryo viloyati hokimligi va Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasi Alabuga shahridagi “Alabuga” erkin iqtisodiy zonasi bilan kelishuviga asosan 25 nafar viloyat delegatsiyasini Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasi Alabuga shahriga 23-27-yanvar kunlari borib kelishi bilan bog‘liq xarajatlar uchun (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 12-bandi)	-56,1
5	Viloyat Kurash federatsiyasiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-sonli qarorining 10-bandiga asosan ijrosini ta’minlash maqsadida 23 shtat birliklari uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lov uchun 2023-yil 3-4-chorak 658,3 mln. so‘m (2024-yil uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun bir oylik 104,4 mln. so‘m, jami yillik 1 252,8 mln. so‘m) 2023-yil 3-chorak ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 18-bandi)	-2,5

6	Viloyat hokimligiga	Viloyat hokimligiga, viloyat hokimligi xodimlari hamda xalq qabulxonasining texnik xodimlariga yanvar-mart oylari davomida har oyda bir oylik ish haqi miqdorida qo‘shimcha ish haqi to‘lash uchun (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 21-bandi)	-117,6
7	Xalq deputatlari viloyat Kengashiga	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati xodimlariga yanvar-mart oylari davomida har oyda bir oylik ish haqi miqdorida qo‘shimcha ish haqi to‘lash uchun (91,5 mln. so‘m), xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputatlarini 2023-yildagi faoliyati natijalariga ko‘ra ma’naviy-moddiy rag‘batlantirish uchun (47,5 mln. so‘m) va xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashi kotibiyatlarining ish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy kompyuterlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun (336,0 mln. so‘m) (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 23-bandi)	-4,3
8	Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi	Viloyatda “Yangi O‘zbekiston yoshlari birlashaylik” shiori ostida yoshlar sayllari va ma’naviy-marifiy tadbirlardan yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-82-33-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 27-bandi)	-2,0
9	Viloyat hokimligiga	Viloyat hokimligi huzuridagi IT-markaziga kompyuter hamda mebel jihozlari xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar uchun (mebel uchun 270,6 mln. so‘m) (xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 5-martdagi VI-83-37-8-0-K/24-sonli qarori 1-ilovasi 11-bandi)	-2,8
II.	**Harbiy-ma’muriy sektorlarni rivojlantirish jamg‘armasiga**		**147,0**
10	Harbiy-ma’muriy sektorlarni rivojlantirish jamg‘armasiga	Viloyat hokimligining 2023-yil 11-sentabrdagi 07-01/251-sonli yig‘ilish bayoniga asosan 18299-sonli harbiy qismda 300 nafar chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘quvchilarining ovqatlatrishdan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash hamda jamg‘arma daromadlar bazasini oshirish uchun	147,0
III.	**Boshqa xarajatlarga**		**798,8**
11	Viloyat Madaniyat boshqarmasiga	Joriy yilning 1-20-mart kunlari Toshkent shahridagi “Yangi O‘zbekiston” majmuasida “Navro‘z umumxalq” bayrami tadbirlarida ishtirok etishi uchun yuboriladigan Surxondaryo viloyati ijodiy jamoasining sarf-xarajatlari hamda Termiz shahrida o‘tkazilgan “Navro‘z” umumxalq viloyat tadbirini o‘tkazishidan yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun	489,0
12	Viloyat hokimligiga	2024-yilgi “Navro‘z” umumxalq bayramini nishonlash munosabati bilan o‘z faoliyatlarida erishayotgan muvaffaqiyatlari, o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni vijdonan, sifatli va o‘z vaqtida bajarayotganliklarini inobatga olib viloyat hokimligida ishlayotgan barcha xodimlarga bir oylik ish haqi miqdorida rag‘batlantirish uchun	309,8